

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



**“PATENTSHUNOSLIK, LITSENZIYALASH VA
SERTIFIKATSIYALASH” fanidan
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	300000 - Ishlab chiqarish texnik soha
Ta'lim sohasi:	310000 - Muhandislik ishi
Mutaxassislik:	5A311903 - Neft va gaz quduqlarini burg'ulash

Fan dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashida ko'rib chiqilgan
va tavsiya qilingan (2021 yil "30" 08 dagi "1" - sonli bayonnoma)

Tuzuvchi:

Mamatov F.M. – *Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish
va servis kafedrasi professori*

Taqrizchilar:

Razzaqov T. - QarMII dotsenti

Maxamov X. - QarDU dotsenti

KIRISH

O'zbekistonda iqtisodiy munosabatlar tobora mustahkamlanib bormoqda. Respublikamiz yanada rivojlanish uchun yangi texnologiyalar hamda tayyor mahsulotlarni ichki va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirilishi respublikamizda intellektual faoliyatning natijalarini huquqiy muhofazalanishi va tijoratlashtirilishini ta'minlash uchun yaxlit va oqilona tizimni barpo etilishi talab qilinadi. O'zbekiston Respublikasida deyarli barcha intellektual mulk obyektlari turlari bo'yicha huquqiy muhofazalash uchun tegishli imkoniyatlar mavjud.

Intellektual mulkni muhofazalash huquqlari bo'yicha samarali tizim yaratish uchun zarur bo'lgan poydevor negizlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bayon etilgan. Intellektual mulk to'g'risidagi qonuniy asoslar O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik Kodeksida intellektual mulk masalalariga bag'ishlangan maxsus IV-bo'limida belgilangan. Intellektual faoliyati natijalarini, texnologiyalarini xalqaro bozorlarida mavjud bo'lgan kuchli raqobatga chidamli mahsulotlar darajalariga yetkazish lozim. Shu bilan birga zamonaviy innovatsiyaning tadbirkorlik va intellektual mulk huquqlari sohalarida malakali mutaxassislarini tayyorlash masalalari ayniqsa dolzarbdir.

Patentshunoslik sohasidagi muayyan bilimlarga ega bo'lish butun jahondagi ilg'or texnologiyalardan foydalanishga yo'l ochib beradi, o'z ixtirolarini yaratish, ulardan samarali yo'llar bilan foydalanish, litsenziyalarni sotish va sotib olish, patent tadqiqotlari o'tkazish yo'llarini ko'rsatadi.

Bugungi kunda hal etilishi lozim bo'lgan masalalarni yechimi uchun Respublikamizga "Patentshunoslik, litsenziyalash va sertifikatsiyalash" sohasida jahon andozalariga mos keluvchi yuqori malakali mutaxassislar kerak. Shu kunning mutaxassisiga, birinchidan, iste'molchilarni ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda intellektual bozorni har tomonlama tahlil qila bilish, ikkinchidan bozorga ta'sir eta bilish talabi qo'yiladi.

Fanning asosiy maqsadi, vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad shundan iboratki, bo'lajak magistrnlarni patent axborotining hozirgi oqimini tahlil qilish, yaratilayotgan ilmiy ishlanmalar, konstruktorlik yechimlari, texnologiyalarni intellektual mulk obyektlari sifatida huquqiy muhofazalash, shuningdek bu obyektlardan foydalanishda huquqiy va iqtisodiy jihatdan to'g'ri qarorlar qabul qilishni, standartlashtirishning qonun-qoidalariga rioya qilish borasida sertifikatlashtirish xalqaro talab va qoidalariga amal qilishni o'rganib olsinlar.

Fanning vazifasi magistrnlarga O'zbekiston Respublikasi va xorijda intellektual mulk obyektlarini muhofazalash bo'yicha amaliy bilimlarni berishdan iborat. Fanni o'rganish natijasida talabalar ixtirorlar, foydali modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlarini patentlash uchun talabnomalar tuzish, tovar belgilari, EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarini ro'yxatdan o'tkazish, litsenziya shartnomalari tuzish, O'zbekiston va yetakchi industrial mamlakatlarning patent hujjatlari bilan ishlash, turli patent tadqiqotlar o'tkazish malakalarini egallashlari, standartlashtirish obyektlarini aniqlash, turli standartlar bilan tanishish va ishlash, sifatni boshqarish, standartlashtirishning qonun-qoidalariga rioya qilish borasida sertifikatlashtirish xalqaro talab va qoidalariga amal qilishni o'rganish va ularning ishlatilish sohalarining nazariy asoslarini o'rgatishdan iborat.

Fan bo'yicha magistrantlarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

Fanni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistr:

- patent huquqining rivojlanish tarixini, O'zbekiston qonunchiligi bo'yicha patent egalarining mutlaq huquqlari va majburiyatlarini, mualliflik va turdosh huquqlarni huquqiy muhofazalash masalalarini, ixtirolarni patentga layoqatligini ekspertizadan o'tkazish usullarini, yetakchi industrial mamlakatlarda patent qonunchiligining xususiyatlarini, litsenziya bitimlarining asosiy turlarini tuzishni va ulardan foydalana olishni, standartlashtirish bazasida sifatni boshqarish muammolarini yechishga sistemali yondashishni, mahsulot sifatini samarali boshqarishning asosiy xususiyatlarini, standartlashtirish bo'yicha mehnat va ishlar narxi meyorlarini ***bilishi kerak***;

- yangi texnik yechimlarni analoglar bilan qiyosiy tahlil va ixtiro tavsifi hamda formulasini tuzish, sanoat namunasini patentlash va tovar belgisini ro'yxatga olish bo'yicha ish yuritish, EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarini ro'yxatga olish, patent axborotini qidirish va tahlil qilish, xalqaro talabnomalar tuzish va xorijiy patentlash, litsenziya bitimlarining asosiy turlarini va ulardan foydalana olishi, har xil turdagi litsenzion bitimlar tuzish bo'yicha tajriba va qonunlarga ega meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash, sinovdan o'tkazish uchun hujjatlarni tayyorlash va sertifikatlash bo'yicha ***ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak***.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“Patentshunoslik, litsenziyalash va sertifikatsiyalash” fani umum metodologik fan hisoblanib o'qitiladi va uni o'zlashtirish ta'lim menejmenti ilmiy tadqiqot metodologiyasi, axborot texnologiyalari, xalqaro iqtisodiy munosabatlar kabi fanlarning o'rganilishiga tayanadi.

Fanni o'rganilishi mutaxassislik fanlarni o'zlashtirishiga va magistratura dissertatsiyani yuqori saviyada bajarilishiga zamin yaratadi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining intellektual mulkni muhofazalash sohasidagi qonunchiligi, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, patent axboroti manbalari va uni qidirish usullari, litsenziyalash, sertifikatsiyalash sohalarida ishlaydigan mutaxassisdan chuqur bilim, amaliy ko'nikmalarini talab qiladi. Shuning uchun bu fan ishlab chiqarish va texnik – iqtisodiy tizimining ajralmas bo'g'inidir.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Fanni chuqur o'zlashtirish uchun plakatlar, diafilm va kinofilmlardan, maketlardan, uskuna va jihoz, dastgohlar va ularning ish agregatlaridan, laboratoriya jixozlaridan va boshqa o'quv texnik vositalaridan keng foydalanish zarur.

Fanni o'qitishda ko'rgazmali material sifatida slayd filmlar, shuningdek talabalar uchun tarqatiladigan materiallardan foydalanadi.

Bundan tashqari, ko'rgazmali material sifatida INTERNETdan, xususan patent axboroti bo'yicha xalqaro ma'lumotlar bazalari, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT), Yevropa patent idorasi (YEPI) va boshqa xalqaro ma'lumotlar bazalari hamda veb saytlari bilan aloqalardan foydalanish maqsadga muvoqdir. O'qitishning bunday usuli talabalarning o'rganilayotgan fanga qiziqishini oshiradi, bu esa o'z navbatida o'quv materialini o'zlashtirish sifati va talabalarning bilimiga ijobiy ta'sir qiladi.

ASOSIY QISM

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida patentshunolik, litsenziyalash va sertifikatsiyalash fanining maqsadi va vazifalari. Insondagi intellektual qobiliyat. Insonning rivojlanishi, bilim olishi, ixtiro qilishiga tabiiy intilishi va ijodi mahsulidan iqtisodiy samara olishi. Ijodiy salohiyat. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulk egasining o'z mulkidan samarali va oqilona foydalanishi. Jahon-moliyaviy iqtisodiy inqiriozi sharoitida iqtisodiy rag'batlantirishning eng maqbul usuli. Intellektual salohiyati natijalariga va mulkchilik huquqiga ega bo'lish. Intellektual ijod natijalari. Patentshunolik, litsenziyalash va sertifikatsiyalash fani intellektual mulkni yaratish, muhofazalash va undan foydalanishning huquqiy iqtisodiy, tashkiliy va boshqa masalalarini o'rganuvchi fan sifatida.

Intellektual mulk obyektlarini muhofazalash sohasidagi qonunchilik. Intellektual mulk obyektlarini muhofazalash. Intellektual mulk fuqarolik huquqining kichik sohasi sifatida. Patent huquqi va fuqaro munosabatlari ishtirokchilarining individuallashtirish vositalarini muhofazalash. Noan'anaviy obyektlarni muhofazalashdan. Mualliflik huquqi va sanoat mulki. Patent huquqi va iqtisodiy munosabatlar. O'zbekistonda intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofazalash sohasidagi amaldagi qonunchilik. Ilmiy-texnik ijodiyot erkinligi.

Ilmiy kashfiyotlar, uning obyektlari ehm uchun dastur va ma'lumot bazalari. Kashfiyot. Kashfiyot ustunligi. Kashfiyotlarni aniqlash. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni.

Ixtiro va litsenziyalash. Ixtiro va litsenziyalash. Intellektual faoliyat. Yangi g'oya. Texnik yechim Patent davlat nomidan sanoat mulki obyektiga beriladigan va muayyan hududda muayyan vaqt oralig'ida amal qiladigan muhofaza hujjati sifatida. Ixtiroga O'zbekiston Respublikasida patent va litsenziya berish uchun talabnoma tuzish qoidalari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994 yil 6 maydagi 1063-XII sonli qaroriga muvofiq kuchga kiritilgan "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida" gi qonunining 2-moddasi 2-qismiga muvofiq ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Patent idorasi ixtiroga patent berish uchun talabnoma tuzish tartibi va meyoriy hujjatlari.

Seleksiya yutuqlari. O'simliklarning yangi navlari. Yangi zotlar va seleksiya yutuqlari. Nav va zotlar. O'zbekistonda seleksiya yutuqlariga huquqlar patent yoki guvohnoma berish. Seleksiya yutug'iga patent berish. Seleksiya yutug'ining yangiligini aniqlash. Ekspertiza va davlat sinovlari.

Sanoat namunalari. Mahsulot belgisi. Asosiy tushunchalar. Sanoat namunasi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sanoat namunasining yangiligi, o'ziga xosligi va sanoatda qo'llanilishi uning patentga layoqatlilik shartlari. Sanoat namunasining estetik va (yoki) ergonomik xususiyatlarini belgilovchi muhim belgilari (alomatlari) majmui. Ustuvorlik sanasi. Tovar belgilarini huquqiy muhofazasi Intellektual mulk obyekti. Tovar belgisining o'ziga xos xususiyati uning tovar va xizmatlar bozoridagi bajaradigan roli. O'zbekistonda tovar belgilari bilan bog'liq holda yuzaga keladigan munosabatlar. "Tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari to'g'risida" gi qonun. Tovar belgisi (xizmat ko'rsatish belgisi)ning huquqiy muhofazasi. Jahon-moliyaviy iqtisodiy inqiriozi sharoitida tovar belgisi egasining huquqlarini buzilishi.

Patent, litsenziya va sertifikat olish uchun shartnoma tuzish. Intellektual mulk obyektlari. Ilmiy kashfiyotlar va ixtirolar. Patent, litsenziya va bajarilgan ishlarni sifat ko'rsatkichlarini aniqlash. Sertifikatlarni qonun talablaridan kelib chiqqan holda berish. Muallif va mualliflik huquqlari.

Patent axboroti. Aniq va o'z vaqtidagi axborotga ega bo'lish. Muvaffaqiyat va mag'lubiyat. Hal qilingan muammo. Tadqiqot olib borish vaqti. Patent axboroti. Universal axborot resursi. Zamonaviy texnika yutuqlaridan tez va to'la xabardor bo'lib. Patentlar hamma vaqt eng so'nggi axborotni berishi. Ixtirochilar (yoki ularning ish beruvchilari)ni o'z g'oyalarini patentlash. Patent axborotini talabnomasi. Sanoat mulki obyektlari (ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari). Tan olingan turli texnik yechimlari va ishlanmalar. Patentlar va ushbu mulkka tegishli subektlarning huquqiy maqomi. Patent hujjatlarini tizimlashtirish.

Xalqaro patent tasnifi. Butun jaxon intellektual mulk tashkiloti. Butun jaxon intellektual mulk tashkilotining tarixi. Sanoat mulkini muhofaza qilish Parij konvensiyasi. Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish Bern konvensiyasi. "Xalqaro byurolar". "Intellektual mulkni muhofaza qilish bo'yicha birlashgan xalqaro byurolar". BIRPI. Hozirgi Butun jahon intellektual mulk tashkiloti (qisqartirilgan shaklda "BIMT", ingliz tilida -"WIPO", fransuz va ispan tillarida - "OMRI") . "Butun jaxon intellektual mulk tashkilotini ta' sis etish Konvensiyasi"

Xalqaro patent tizimlari. BIMT shuningdek rivojlanayotgan mamlakatlarda patent tizimining shakllanishiga texnik va moliyaviy yordam ko'rsatish. BIMT faoliyati butun jahonda intellektual mulk xuquqlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish asosi sifatida.

Yevropa va AQSH patent idorasi va huquqchiligi. G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya. Yagona Yevropa patent tizimining tuzilishi. Yagona Yevropa patent tizimi. Yevropa patent konvensiyasi. Yevropa patent tizimining Konvensiyaga muvofiq amal qilishi. Yevropa patent idorasi (YEPI yoki ingliz abbreviaturasida YERO). Konvensiya ishtirokchi davlatlarining nomidan Yevropa patentlarini berish. Yevropa patent tizimi.

"MDH" patent idorasi va huquqchiligi. Bugungi Rossiya qonunchiligi. Rossiya va boshqa MDX mamlakatlarida rivojlanayotgan zamonaviy patent tizimi. Rossiyaning yangi patent qonuni. Yetakchi xorijiy mamlakatlar patent qonunchiligi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Xalqaro patent tasnifining tuzilmasi
2. Qurilma uchun ixtiro formulasini tuzish
3. Usul uchun ixtiro formulasini tuzish
4. Ixtiroga referat tuzish
5. Qurilma uchun ixtiro tavsifini tuzish
6. Ixtironing analog va prototiplarini aniqlash
7. Sanoat namunaning muhim belgilar tavsifini tuzish
8. Sanoat namunaning tavsifini tuzish
9. Patent tadqiqotlarini o'tkazish
10. Litsenziya bitimini tuzish

Mustaqil ish uchun mavzular va topshiriqlar

“Patentshunoslik, litsenziyalash va sertifikatlash” fanini kengroq va batafsil o'rganishda korxonalar, patent idoralari ma'lumotlaridan mustaqil foydalanilsa mavzularning asosiy mazmunini chuqurroq o'rganishga yordam beradi. Mustaqil ishning asosiy maqsadi - talabalar tomonidan mazkur fanni chuqurroq o'zlashtirishlari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iboratdir. Bunda talabalar quyidagilarni bajarishlari lozim: yangi zamonaviy usullar asosida bilimga ega bo'lishi uchun mustaqil ravishda qo'shimcha mavzularni o'zlashtira olish, zaruriy ma'lumotlarni izlab topishning qulay va samarali usullaridan foydalanila bilish hamda topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashishlar. Mustaqil ishning tashkiliy shakllari bo'lib, ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlar yordamida mustaqil o'zlashtirish, berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash va ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislar tayyorlash kabilar hisoblanadi. Talabaning mustaqil ishini qabul qilish ma'ruza yoki amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan kafedrada ishlab chiqilgan maslahatlar berish jadvali asosida amalga oshiriladi va ular guruh jurnalida qayd etiladi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

1. Talabaga mutaxassisligi bo'yicha muayyan ilmiy-texnika ishlanmasi taklif etiladi. Bu ishlanma eksportga chiqariladi deb mo'ljallangan holda uning patent sofligini tadqiqot natijalari bo'yicha hisobot tuziladi.
2. Ixtirolar guruhiga talabnoma tuzishga oid: Talabaga biri ikkinchisini amalga oshirish uchun mo'ljallangan ikkita texnik yechimning tavsifi taklif etiladi. Texnika darajasidan har bir ixtironing analog va prototiplarini aniqlanadi. Ixtironing ko'p zvenoli formulasi va tavsifini tuzish.
3. Sanoat namunasiga talabnoma tuzish bo'yicha: Talabaga muayyan badiiy konstruktorlik yechimi taklif etiladi. Patent qidiruv o'tkazish va bu yechimning analoglarini topish zarur. Tahlil natijasida tadqiq etilayotgan yechimning muhim belgilarini topish zarur. Tahlil natijasida tadqiq etilayotgan yechimning muhim belgilari majmuini aniqlash va sanoat namunasi tavsifini tuzish.
4. Talaba intellektual mulk sohasidagi asosiy xalqaro konvensiyalar va shartnomalarni o'rganishi zarur. Bu sohada kooperatsiya yuzaga kelishi va rivojlanishning asosiy sabablarini taxlil qilish. Tadqiqot natijalari bo'yicha referat tuzish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni - 1994-yil 6-mayda qabul qilingan, 2002-yil 29-avgustda o‘zgartirilgan.
2. “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni – 2001-yil 30-avgustda qabul qilingan.
3. “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni – 2006-yil 20-iyulda qabul qilingan.
4. “EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarini huquqiy muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni – 1994-yil 6-mayda qabul qilingan.
5. “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni - 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan, 2002-yil 29-avgustda o‘zgartirilgan.
6. “Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni-2001-yil 12-mayda qabul qilingan.

Qo‘shimcha darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

1. Djumaxodjayev A.Z. Patentshunoslilik, OUYU uchun darslik -T. «Mehnat», 2001.
2. Djumaxodjayev A.Z. Ilmiy-texnika mahsulotlari va innovatsiya loyihalarini tijoratlashtirish jarayonida intellektual mulk obyektlarini xalqaro muhofazalash hamda xorijiy litsenziyalash – T. “Mehnat”, 1999.
3. Патентоведение. Под редакцией Рясенсева В.А.-М.Машиностроение, 1984.
4. Turkmenov X.I., Yesenbekova R.K. Patenshunoslilik, litsenziyalash va sertifikatlashtirish fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish bo‘yicha metodik qo‘llanma. Tashkent, 2011.
5. Методическое пособие к выполнению лабораторных и практических работ по предмету “Метрология, стандартизация и сертификат”. Составители: Ахмедов М.Х., Туркменов Х.И., Шермухамедов Х.П.,ТИИМ, 2008.
6. Mahsulot belgisi va xizmat ko‘rsatish belgisini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talabnoma tuzish qoidalari - T. “Rasmiy axborotnoma”, № 3 , 1997.